

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N.Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
"Qutadg'u biling"dagi Allohnning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida	411
Х.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalaldinova	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning "Enashamol" qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva,N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



УО'К: 355.237 (584.4)

**TURKISTONDA BOJXONA ISHI FAOLIYATIDA KADRLAR MASALASI
(1917-1924 YILLAR)**

**КАДРОВЫЙ ВОПРОС В ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ТУРКЕСТАНЕ
(1917-1924 ГГ.)**

**PERSONNEL ISSUE IN CUSTOMS ACTIVITIES IN TURKESTAN
(1917-1924)**

Botirov Elbek Alisherovich

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Turkiston ASSR bojxona ishi tarixiga doir, hususan o'lkada mavjud bojxona muassasalari va nazorat punktlari faoliyatida ish olib borgan kadrlar masalasi tadqiq qilingan. Shuningdek, bojxona tizimida kadrlarni hisobga olish, tayyorlash va taqsimot mexanizmini yaratish, kadrlarining nomenklaturasi va apparatini shakllantirish jarayonlari yoritilib, o'rganilgan arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish orqali olingan natijalar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается история таможенной работы Туркестанской АССР, особенно вопрос кадров, работавших в таможенных учреждениях и контрольно-пропускных пунктах страны. Также в научный оборот были включены процесс создания механизма учета, обучения и распределения кадров в таможенной системе, формирования номенклатуры и аппарата кадров, а также результаты, полученные путем анализа изученных архивных документов и данных научной литературы.

Abstract

This article examines the history of customs work in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, especially the issue of personnel working in customs offices and checkpoints of the country. Also included in scientific circulation was the process of creating a mechanism for accounting, training and distribution of personnel in the customs system, forming a nomenclature and personnel apparatus, as well as the results obtained by analyzing the studied archival documents and scientific literature data.

Kalit so'zlar: bojxona xodimi, bojxonachi majburiyatları, boshqaruв bo'limi, taftish-inspektorlar, ish yuritish hujjatlari, xodimlarni toifalash

Ключевые слова: таможенник, обязанности таможенника, отдел управления, контролеры, распорядительные документы, классификация сотрудников.

Key words: customs officer, duties of a customs officer, management department, controllers, administrative documents, classification of employees.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati ko'r asrlik tarixga ega. Markaziy Osiyo hududida davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi bilan bir qatorda fiskal tizimning muhim elementi sifatida, tashqi iqtisodiy faoliyat, savdo, huquqiy va xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida bojxona ishi ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu bilan birga, tarif va tariflarsiz tartibga solish choralarini orqali rivojlanayotgan, iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullangan bojxona xizmatining shakllanishi sodir bo'ldi.

Bojxona xodimlari kasbiy faoliyati ularning chuqur iqtisodiy bilimlarga, bojxona qonunchiligini aniq sharhlay olishiga, favqulodda vaziyatlarda kechiktirmay ish ko'rish mahoratiga egalik, bojxona meyorlarini buzuvchi odamlar xatti-harakatlarini fosh qila olish qobiliyatiga asoslanadi. Tadqiq etilayotgan davrda bojxona ishi amaliyotidagi jiddiy kamchilik va xatoliklarning asosiy sabablaridan bojxona xodimlari masalasıdır. Sovetlashtirish jarayoni ko'lami kengaya boshlagach bojxona tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

TARIX

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi vaqtarda O.Z.Zayniddinov, Sh.A.Akramova, B.Ergashev, Sh.R.Xoliqulov, X.Altibayev kabi tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy bojaxona xizmati xodimlari kasbiy tayyorgarligi va shaxsnинг ahamiyatga ega sifatlarini rivojlantirishni o'zida namoyon qiluvchi tadqiqotlar olib borilmoqda[1]. Tadqiqotlar tizimida bojaxona ishi tarixida xodim kasbiy parametrlari qay asosda belgilanganligi, uning mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda kasbiy mas'uliyat masalasini ko'rib chiqishda o'zgacha yondashuvga zaruriyat sezilmoqda. Afsuski, sovet hokimiyyati davrida Turkiston bojaxona xodimlari masalasiga doir tadqiqotlar olib borilmagan. Mavzuga doir asosiy ma'lumotlarni bizga O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinnlarda O'zMA) fondlarida saqlanayotgan hujjatlar orqaligina tahlil qilish imkonini berdi. Hususan, O'zMAda saqlanayotgan R-330-fondning 61, 74, 82, 109, 140, 159, 165, 177, 187, 245 250, 254, 278, 284-290, 311-338-yig'majild hujjatlari tarkibiga bojaxona ishi tizimidagi kadrlar va xodimlarning shaxsiy anketalari, xodimlarni lavozimga tayinlash to'g'risidagi bo'yruqlar, safar xizmatlari harajatlari, harbiy safarbarlik hujjatlarini kiritish mumkin. Tarixchi Y.O.Petrova va O.M.Andrevnevning tadqiqotlarida[2] Rossiya bojaxona tarixinining bosqichlarining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy jihatlari, shuningdek, O'rta Osiyo mintaqasidagi bojaxona nazorat-post maskanlarining qisqacha tavsifini va bojaxona ishida kadrlarni tayyorlash ishlari tavsifi berib o'tilgan.

Maqolani yoritishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tizimli, qiyosiy va muammoviy-xronologik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dastlabki vaqtida sovet davri bojaxonasidan kadrlar ommaviy tarzda bo'shatildi. Kadrlar yetishmasligi, chegarada kontrabanda tovarlarning aylanmasining o'tishligi, xodimlarning yetishmagan bo'lsa-da, mahalliy aholini jalb qilmaslik natijasida Turkfrontning harbiy xizmatdan bo'shatilgan askarlarni vaqtinchalik bojaxona kuzatuvchilar sifatida shtat tashkil qilina boshlaydi[3,19]. Keyinchalik podsholik davri bojaxonasida xizmat qilgan, g'oyaviy tarafda bo'lgan sobiq xodimlarni qayta bojaxona ishiga jalb qilish qarori e'lon qilinadi. Qarorga muvofiq 9 yildan 20 yilga qadar ishlagan mexnat tajribasiga ega, 51 yoshdan oshmagan xodimlar jalb qilina boshlanadi[4,11a;14a].

Turkiston bojaxona xodimlarining xizmat majburiyatlarini belgilab berishda bir nechta meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Chunonchi, RSFSR XKS ning 1918-yil 29-maydag'i "Markaziy va mahalliy sovet hokimiyyatlarining yig'imlarni undirish huquqlarini chegaralash va mahalliy bojaxona organlari faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi, 1920-yil 16-apreldagi "Rekvizitsiya va musodara to'g'risida"gi, 1921-yil 8-dekabrdagi "Kontrabandaga qarshi kurash haqida"gi, 1922-yil 18-yanvardagi "Bojaxona ma'muriyati to'g'risidag"gi, 31-martda "Mahalliy bojaxona muassasalari, okruglar, bojaxona va bojaxona postlari to'g'risida"gi, 14-iyuldag'i "Kontrabanda va musodara qilingan egasiz mahsulotlari bojaxona organlari tomonidan realizatsiya qilgan shaxslarni mukofotlash to'g'risida"gi, 1-sentabrdagi "Bojaxona muhofazasi to'g'risida"gi, 10-oktabrdagi "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni rekvizitsiya qilish hamda musodara qilishdan kelib chiqadigan da'volarni bekor qilish to'g'risida"gi, 1923-yil 14-martdag'i "Bojaxona muassasalari tomonidan ombor va boj yig'imlarini undirish to'g'risida va bojaxonada tovarlarni saqlash muddatlari to'g'risida"gi, 1924-yil 26-fevraldag'i "Bojaxona organlari tomonidan musodara qilingan kontrabanda tovarlarini sotishdan tushgan summalarini taqsimlash tartibi to'g'risida"gi dekret va qarorlarida bojaxona xodimlarining burch va majburiyatlarini belgilab berildi.

Ishchi-dehqon mudofaa Kengashi tamonidan 1919-yil 10-oktabrida qabul qilingan №2 sonli qaroriga ko'ra, qizil armiya qo'shinlari harbiy qismlari bojaxona nazorat postlariga jalb etildi[5,12;14;26;]. Savdo va sanoat xalq komissarligi Harbiy va Ichki ishlar xalq komissarliklari bilan kelishgan holda, chegara nazorat punktlariga bojaxona xodimlarini jalb etish yoki joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Turkiston bojaxona nazorati boshqarmasi ma'muriyati asosan Rossiya imperiyasi davridan beri ishlab kelgan yirik toifali bojaxonachilar bo'lgan. Masalan, boshliq V.Srdyukov 1895-yildan beri xizmatda ekanligi, o'rinnbosarlar I.Remez va V.Murashko, inspektor I.Avdoshinlar esa 1898-yildan faoliyat yuritgan. Ma'muriyatda bosh hisobchilar K.Zaxarova va Z.Serebrennikovlar esa 1918-yildan ish boshlagan. Shuningdek, bojaxona xodimlar tarkibiga ko'ra Krasnovodsk bojaxonasida 32 ta xodim bo'lib, ulardan 19 tasi rus millatiga mansub bo'lib, 7 kishi turkman, 3 kishi fors va 1 ta

xodim ozarbayjon millatiga xodimlar bo'lgan. Bojxonada mahalliy xodimlardan – Hasan Xusaynov, Mamedxasan Abdulfay o'g'li, Mexyi Xalafov, Tohir Aliboboyev, Husayn Shamil o'g'li, Muxarram Hummeyali o'g'li, Salohitdin G'ayyashulin, Xarif Yadgarov, Aminxodja Husayniddinov, Axmad Abduraxmanovlar asosan yuk tashuvchi, Safi Malik Qurmayev kuryer, Nurmanjon Vafin tungi qarovul bo'lib ishlaganlar (ularning orasida bir nafar xodim – Gabaydul Muxammadshin bojxona nazoratchisi bo'lib ishlagan[6,195b;297a-b;].

1921-yil 16-iyul holatiga ko'ra Turkiston bojxona okrugi ma'muriy shtatlar kesimida Bojxona-material bo'limga 47 shtat, G'arbiy Turkiston bojxona okrugi va Sharqiy Turkiston bojxona okurgida 13 shtat va Toshkent markaziy bojxona okruglarda 123 shtat bo'lgan. Qolgan bojxonalarda (1-3 toifali) nisbatan yuk tashuvchilarga bo'lgan talab (jami mingga yaqin shtat) keskin oshgan[7,49-60].

Bojxona xodimlari oylik maoshlari toifaga qarab malakalangan. Xususan, Tashqi Savdo xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'limi tamonidan 1921-yil 10-noyabrdagi №262 sonli buyrug'iga ko'ra bojxona xodimlariga haq to'lash tartibi ish hajmidan kelib chiqqan holda belgilandi. Keyinchalik xodimlarning ish haqlari oltin kursi qiymati bilan belgilana boshlanadi. Xususan, Tashqi Savdo xalq komissarligining O'rta Osiyo bo'limi tamonidan 1921-yil 4-dekabr №280 sonli buyrug'iga ko'ra, Turkiston ASSR hududida oylik ish haqlari joriy oy inflatsiyasiga teng miqdorda oltin kurs bilan qayta hisob-kitob qilina boshlandi[8,52;57].

"Sovet Turkistoni" gazetasining 85-sonida e'lon qilingan "Turkiston Respublikasining davlat, jamoat va xususiy muassasalari xodimlarining xizmat safarlariga haq to'lash to'g'risida" gi Qoidaga asosan, ish haqi Butunrossiya markaziy ijob qo'mitasi qoshidagi Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi tomonidan tasdiqlangan meyor bo'yicha bojxona muassasalari xodimlariga ham shu asosda haq to'lanib kelingan. Bojxona xodimlari doimiy yashash joyidan chiqib ketish bilan bog'liq lavozimlarga tayinlanganda va bir lavozimdan boshqasiga o'tganda, yo'l haqi va yuk puli to'lanib borilgan. Tayinlangan ish joyiga yetib olish uchun: yolg'iz xodimlar uchun 350 rubl, oilali lekin farzandlarsiz xodimlarga 500 rubl miqdorda safar puli to'langan. Istisno tariqasida o'z xohishiga ko'ra murojaat qilganlarga (masalan, sog'ligini tiklab olish uchun) nafaqa pullari berilmagan. Bojxona organlari xodimlariga kundalik tekshiruv xizmat safarları ham mavjud bo'lib, o'z tumanlarida kuniga 15 rubldan oshmagan holda, boshqa tumanda safarda bo'lgan vaqtlarida esa kuniga 30 rubl miqdorida pul berilgan. Amalda har qanday rasmiy xizmat safarları uchun ma'lum miqdorda pul berib borilgan, lekin o'sha vaqtning qoidalari binoan bojxona xodimlari Turkiston Respublikasi hududida 3 oydan ortiq muddatda safarda bo'lishligi "xizmat safarları" deb tan olinar edi.

Shuningdek, Turkiston bojxona boshqarma okrugi tomonidan chekka bojxona punktlariga xizmat yuzasidan safarga yuborilganda, jo'natilgan xodimlarning lavozimlarini vaqtinchalik boshqa shaxslar egallagan taqdirda, ular egallab turgan lavozimi saqlangan. Turkiston bojxona okrugiga taaluqli hujjalarni o'rganish asosida xizmat safarları puli bojxona ombori mudirlariga ko'proq berilgan. Xususan, 1918-yilgi hisobotlarda Baxt, Jarkent bojxonalari, Ergashtov, Prejeval, Norin va Xargos nazorat postlari ombor mudirlari o'z lavozimlari uchun belgilangan muddatlardan ortiq qolganliklari tufayli xizmat safarları doimiy olib turgan[9,109].

Turkiston ASSR Bojxona xodimlari doimiy ravishda Toshkent uyezd mudofaa bo'limi hisobiga turgan. 1921-yil 19-iyulda RSFSR Tashqi savdo xalq nozirligi O'rta Osiyo boshqarmasi boshlig'i Zalxonov (ijro ma'suliyati ma'muriyat bo'limi boshlig'i Litvin va boshliq o'rinnbosari Lavrovlarga yuklatilgan) Bojxona bosh boshqarmasiga jo'natgan №235 va №204 sonli buyrug'ida 1881-yildan 1903-yillargacha to'g'ilgan bojxona xizmatchi-xodimlar o'z ixtiyorlari bilan harbiy hisobda turishligi qayd etildi. Shuni ham qayd etish kerakki, o'z vaqtida topshiriqlarni bajarmagan 34 nafar bojxona xizmatchilari hayfsan jazosi berilgan[10,2;7;30].

Arxivda saqlangan hujjalarga ko'ra, bojxona muassasalari nomenklaturasida bir qator meyoriy hujjalalar bo'lishi lozim bo'lgan. Xususan, xodimlar ro'yhati, mehnatni muhofaza qilish inspektorining eslatmalarini qayd etish kitoblari, xodimlar to'g'risidagi buyruqlar kitoblari, kassa daftarlari, hisob kitoblari, ish stoli registrleri, musodara qilingan tovarlarni qayd etish kitoblari va ularni saqlash uchun ombor daftarlari utilishi shart bo'lgan[11,15]. Shuningdek, xodimlarning ish faoliyati bilan bog'liq turli mashg'ulotlarga qatnashish jadvali, idorada mansabdar shaxslar ro'yhati, hamda mehnatda texnik xavfsizlikka oid hujjalalar bo'lgan. Bojxona muassasasi hisobchisi

TARIX

tamonidan cheklar kitobi va pul tushumini tasdiqlovchi chiqim hujjatlari bir-biriga to'g'ri yuritilgan bo'lishi kerak bo'lgan.

Bojaxona xodimlari shaxsiy hujjatlari yig'majildi quyidagi ma'lumotlar shakllantirilgan: a) oxirgi xizmat joyi ma'lumotlar; b) harbiy xizmatga yaroqligi to'g'risida ma'lumotlar; v) tavsiyanoma; g) shaxsiy anketa; Turkiston Bojaxona nazorat boshqarmasi xodimlarini ishga olish va lavozimidan bo'shatish qoidalari, buyruqlarni rasmiylashtirish ko'rsatmalari belgilab berildi.

1922-yilda Tashqi savdo va savdo xalq komissarligi kollegiyasiga Petrograd, Moskva, Xarkov, Toshkent va Irkutskda bojaxona xodimlarini tayyorlash uchun kurslar ochishga ruxsat berildi. Dastlabki vaqtida Tayyorlov kurslari dasturi bojaxona ishi tarixi va iqtisodiy bilimlar asosida yaratilgan bo'lib, asosan, 2 va 3 toifadagi bojaxona quiy razryadli xodimlari: taftish-inspektorlar, texnik ko'rik inspektorlari, kontora ish yurituvchilari va omborxona boshliqlari ishtirot etganlar. Xususan, 1922-yilni dastlabki tayyorlov kursini Krasnovodsk bojaxona bo'limida 3 ta xodim: V.A.Puzikov (35 yosh), S.V.Skobelin (37 yosh), A.F.Makarsev (32 yosh) bitirib chiqdilar.

Bojaxona ishi juda og'ir sharoitlarda olib borilishi, ijtimoiy ta'minotni yetarlicha emasligi, uzoq chegara bo'yli bojaxonalarida kadrlar yetishmasligi va sohaga mahalliy aholini jalb etilmasligi natijasida bojaxona ishida kadrlar qo'nimsizligini keltirib chiqargan. Bojaxona xizmatchilarning xech qayerga chiqmaslik sharoitida bu sohada ishlaydiganlar unchalik ko'p bo'lmagan va xodimlarga talab kuchli bo'lgan. Shuning uchun bojaxona ma'sul bo'lgan lavozimlar markazdan ta'minlab turilgan. Qolgan ma'suliyatli lavozimlarga xizmatchilarni tayyorlash ishlari bojaxonalarga xizmat safarlari davomida tayyorlangan xodimlarda tayinlangan. Xodimlarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish ishlari Toshkentdan yangi xodim jo'natilgachgina amalga oshirilgan. Markazdan xizmat safarlari ham shu tartibda amalga oshirilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiq etilayotgan Turkiston ASSR bojaxona ishi tarixida kadrlar masalasi soha strukturasida amalga oshirilgan o'zgarishlarga qaramay o'tgan davr tajribasini davom ettirildi. Bu jarayonning o'ziga xos siyosiy va iqtisodiy sabablari bo'lib, bojaxona tizimi shaxsiy tarkibini o'z holatida saqlab qolishni nazarda tutar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaynuddinov O.Z. O'zbekistonda bojaxona tizimi va uning o'zbek davlatchiligidagi tutgan o'rni (1991-2001): Tarix.fan.nomz ... diss. –Toshkent: O'zMU, 2002. -B.13; Akramova Sh. A. Bo'lajak bojaxona xizmati xodimlarida kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish masalalari Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan), № 2, 2017, 26-34 sahifalar; Bojaxona organlari uchun salohiyatli kadrlarni tayyorlash holati qanday? // Xalq so'zi. 2020 yil. 16 oktabr; Ergashev V. Bo'lajak bojaxonachilarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash-zamon talabi // Yangi O'zbekiston. 2022 yil 27 yanvar; Xoliqukov R.SH, Altibayev X. Milliy bojaxona tizimida kadrlar tayyorlash va kadrlar mexanizmini yaratilishi // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" jurnali, №9. 2022 yil; (Zainuddinov O.Z. The customs system of Uzbekistan and its role in Uzbek statehood (1991-2001): Candidate of Historical Sciences. ... diss. -Tashkent: UzMU, 2002. -B.13; Akramova Sh. A. Issues of development of professional responsibility of future customs service employees "Modern Education" (Uzbekistan), No. 2, 2017, pp. 26-34; What is the state of training of potential personnel for customs authorities? // People's word. 2020 October 16; Ergashev V. Training of future customs officers according to international standards is the call of the time // New Uzbekistan. January 27, 2022; Khalikulov R.Sh., Altybaev Kh. Personnel training and creation of a personnel mechanism in the national customs system // Journal "Integration of Science, Education and Practice", No. 9. 2022).

2. Петрова Ю.О. История таможенного дела и таможенной политики России. Владимир., 2012. 65 с; Андреева О.М. История таможенного дела и таможенной политики России. Челябинск., 2021. 107 с; (Petrova Yu.O. History of customs affairs and customs policy of Russia. Vladimir., 2012. 65 p; Andreeva O.M. History of customs affairs and customs policy of Russia. Chelyabinsk, 2021. 107 p).

3. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yxat, 1- yig'majild, 19-varaq (National Archive of Uzbekistan, Fund R-330, List 1, Case 19).

4. Turkiston ASSR MIQning "Sobiq bojaxona xodimlarini ishini qayta tiklash" bo'yicha 1920 yil 28 yanvarda qabul qilgan №40 sonli qarori. Qarang: O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yxat, 30- yig'majild, 11a, 14a-varaqlar (Resolution of the Central Executive Committee of the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic of January 28, 1920 No. 40 on "Restoring the work of former customs officers." See: National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 11a, 14a).

5. Наркомвнешторг инструкция войсковым частям, призываляемым к содействию таможенным учреждениям, на основании Постановления Совета Рабоче-Крестьянской Обороны. Qarang: O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yxat, 5- yig'majild, 12, 14, 26-varaqlar (The People's Commissariat for Foreign Trade instructions to military units call for assistance to customs institutions, on the basis of the Resolution of the Council of Workers' and Peasants' Defense. See: National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 12, 14, 26)

6. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yxat, 285-yig'majild, 195b, 297a-b-varaqlar (National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 195b, 297a-b).
7. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yxat, 297-yig'majild, 49-60-varaqlar (National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 49-60).
8. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yhat, 40-yig'majild 52, 57-varaqlar (National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 52, 57).
9. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yhat, 1-yig'majild, 109-varaq (National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Case 109).
10. O'zMA, R-330-fond, 1-ro'yhat, 30-yig'majild, 2, 7, 30 varaqlar (National Archive of Uzbekistan, Fund 330, List 1, Documents of case 2, 7, 30).
11. Elbek Botirov. (2022). CHARACTERISTICS OF THE FUNDS OF THE NATIONAL ARCHIVES OF UZBEKISTAN FOR THE ORGANIZATION AND ACTIVITIES OF THE CUSTOMS DEPARTMENT OF THE TURKESTAN ASSR. *International Journal Of History And Political Sciences*, 2(12), 14–18. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume02Issue12-04>.